



## **GERMANIYA HUJJATCHILIGI TARIXIDAN**

***Isayeva Gulora Faxriddinovna***  
*O‘zDJTU o‘qituvchisi*  
*gulora.isayeva [8523@mail.ru](mailto:8523@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Germaniya hujjatchilik tarixi va uning hududida topilgan ilk rasmiy matnlar, ularning yozilish uslubi, strukturasi va mazmuni haqida fikr yuritadi. Shuningdek, qadimgi davrlarda qirollar va imperatorlarning o‘zaro yozishmalarida aks etgan leksik va stilistik birlklarni tahlilga tortadi. Qadimgi nemislar orasida birinchi yozma yodgorliklar nisbatan kechroq, milodiy 3—4-asrlarda sharqiy nemislar orasida paydo bo‘lgan. Avvaliga bu alohida so‘zlar, qabr toshlaridagi nomlar bo‘lgan va ular run yozuvida yozilgan. Runik yozuvlarning maqsadi - buyum egasini yovuz kuchlar va dushmanlardan himoya qilish, o’liklarni himoya qilish va ularni qaborda saqlashdan iborat bo‘lgan. Runik yozuvlar haqidagi bilim ruhoniylarning kasbiy siri bo‘lib, avloddan-avlodga o’tib kelgan. Runik yozuvlar Kyolnda, Rim-Germaniya muzevida saqlanadi. Shu kabi qiziqarli ma’lumotlar maqolada tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** hujjatchilik, yozma yodgorliklar, run yozuvi, lotin tili, gotlar, qirof farmonlari, nemis qabilalari, cherkov hujjatlari, yozishmalar, leksik birliklar, imperatorlik unvoni, sharaf so‘zlari.

### **ИСТОРИЯ НЕМЕЦКОГО ДОКУМЕНТАЦИИ**

**Аннотация:** В статье рассматриваются история немецкой документации и первых официальных текстов, найденных на ее территории, их стиль написания, структура и содержание. В статье также анализируются лексические и стилистические единицы, отраженные в переписке царей и императоров в древности. Первые письменные источники у древних германцев появились сравнительно поздно, в III–IV вв. н. э., у восточных германцев. Сначала это были отдельные слова, имена на надгробиях, и они были написаны руническим письмом. Целью рунических надписей была защита владельца от злых сил и врагов, защита умерших и сохранение их в могиле. Знание рунического письма было профессиональной тайной жрецов, передаваемой из поколения в поколение. Рунические надписи хранятся в Кельне, в Римско-германском музее. Такая интересная информация анализируется в статье.

**Ключевые слова:** документация, письменные памятники, руническое письмо, латынь, готы, королевские указы, германские племена, церковные документы, переписка, лексические единицы, императорский титул, почетные звания.

## HISTORY OF GERMAN DOCUMENTATION

**Annotation:** The article examines the history of German documentation and the first official texts found on its territory, their writing style, structure and content. The article also analyzes lexical and stylistic units reflected in the correspondence of kings and emperors in ancient times. The first written sources of the ancient Germans appeared relatively late, in the 3rd-4th centuries AD, among the Eastern Germans. At first, these were separate words, names on tombstones, and they were written in runic script. The purpose of runic inscriptions was to protect the owner from evil forces and enemies, protect the dead and preserve them in the grave. Knowledge of runic writing was a professional secret of priests, passed down from generation to generation. Runic inscriptions are kept in Cologne, in the Roman-Germanic Museum. Such interesting information is analyzed in the article.

**Key words:** documentation, written monuments, runic script, Latin, Goths, royal decrees, Germanic tribes, church documents, correspondence, lexical units, imperial title, honorary titles.

**Kirish.** Arxeologiya ma'lumotlariga ko‘ra, Germaniya hududida inson 500-300 ming yillar muqaddam paydo bo‘lgan. Miloddan avvalgi 1-ming yillik oxirlarida Germaniyada joylashib olgan nemis qabilalari Rim davlati bilan to‘qnashdi. Xalqlarning buyuk ko‘chishi deb ataladigan davrdan so‘ng Germaniyada alemanlar, bavarlar, sharqiy franklar qolgan.

Nemis tiliga oid yozma manbalar miloddan avvalgi 200-yillarda eng qadimgi Proto-Norse runik yozuvlari bilan boshlanadi va bu yozuvlar asosan tosh yodgorliklari, qurollar, taqinchoqlar va idishlarga o‘yib yozilgan. An'anaviy yozuvlarning ma'nosi ismlar va egalik ma'lumotlarini, ishlab chiqaruvchining yozuvlarini, sehrli yozuvlarni, diniy harakatlar va o'liklarni xotirlashni o‘z ichiga oladi. Eng mashhur yozma manbalarni tashuvchi yodgorliklar bu - monumental Skandinaviya run toshlaridir.

Rivojlangan german yozma tilining birinchi haqiqiy shakli gotika yozuvlaridir. Gotlar, boshqa qabilalar va xalqlar singari, dastlab umumiy runik yozuvdan foydalanganlar, shuningdek, uni yog'och va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarga o'yib yasaganlar.

Tarixiy ma'lumotlarga tayangan holda aytishimiz mumkinki, Germaniyada dastlabki yozma hujjatlar nemis xalqi qabila bo‘lib yashagan davrga borib taqaladi, yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, ular asosan Galliya va Reynning o‘ng qirg’og’idagi hududda qo’llaniladigan frank qonuniga qo’shimcha ravishda 5-asr o’rtalaridan 9-asrgacha bo‘lgan davrda bir nechta huquqiy yozuvlarni o‘z ichiga olgan german qabila huquqlari ko‘rinishida paydo bo‘lgan.

Ko‘pincha german huquqi deb ataladigan kodlar o‘zining tarixiy ko‘rinishida turli joylarda va mamlakatlarda yashovchi alohida german qabilalari va xalqlarini ifodalaydi. Shu

nuqtai nazardan, barcha o‘zgarishlarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan asl german qonunini aniqlab bo‘lmaydi, aksincha, ko‘plab keskin qarama-qarshiliklarni kuzatish mumkin.

Qabila huquqida german, rim va xristian huquqiy tushunchalari turli darajadagi ahamiyat bilan birlashgan. Yozuvlar lotin tilida yozilgan va olmoncha iboralar bilan kesishgan.

German xalqlari o‘zlarining jamiyatlari va odal qonunlari haqida hech narsa yozmaganliklari uchun, ularning turmush tarzi haqidagi eng to‘liq manba I asrda tarixchi Korneliy Tatsitning “Germania” nomli asari hisoblanadi. Tatsit nafaqat german xalqlarining urf-odatlari va an‘analari haqida yozadi, balki u yerda mavjud bo‘lgan asosiy segmental tuzilmalarini olib, ularning qirollari haqida ham yozadi. Manbalar tomonidan hujjatlashtirilgan qabila huquqining boshqa dastlabki shakllari bilan solishtirganda, manba izohlarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, Tatsitning G‘arbiy va Sharqiyan german xalqlari hududlarini o‘z tajribasidan bilmaganligi juda muhimdir.

Bu vaziyat 5-asrning o‘rtalaridan boshlab o‘zgardi, ya’ni Yevropa huquqiy madaniyatini shakllantiradigan german-rim voris imperiyalari paydo bo‘ldi. Natijada birinchi marta nizomlar yozildi, to‘plangan qonun hujjatlari yaratildi. Bu asl, mustaqil qonun emas edi, mashhur Rim huquqining ta’siri hali ham juda kuchli edi. Shu sababdan qonunlar ritoriklar, din arboblari va o‘qimishli oddiy odamlarning adabiy tilida – lotin tilida yozilgan edi.

Rimlar german tuprog‘ini bosib olgandan so‘ng, madaniy doiralar bir-biri bilan almashishga majbur bo‘ldilar. German qabilalari Rim bosqinchilari qonuni bilan shug‘ullanishlari kerak edi. Rim huquqi asta-sekin ularning qabilaviy huquqlariga kirib bordi, bu huquqlar dastlab og‘zaki ravishda qabul qilindi.

Qadimgi nemislар orasida birinchi yozma yodgorliklar nisbatan kechroq, milodiy 3—4-asrlarda sharqiy nemislар orasida paydo bo‘lgan. Avvaliga bu alohida so‘zlar, qabr toshlaridagi nomlar bo‘lgan. Germaniya hududidagi ilk rasmiy hujjatlar qadim zamonlardan boshlab mavjud bo‘lsa-da, ularning ildizi, ya’ni eng qadimgi yozma hujjatlar VIII–IX asrlarga, ya’ni Franklar imperiyasi hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Aynan ushbu davrda imperiya boshqaruvi markazlashgan va rasmiy yozishmalar keng yo‘lga qo‘yila boshlagan. X asrda Ottonlar sulolasi davriga kelib Germaniya qirollari va imperatorlari tomonidan chiqarilgan farmon va bitimlar yanada kengaygan. Shu bilan birga qirollar o‘z hokimiyatini mustahkamlash, feodallar va cherkovlarga yer berish yoki soliq tizimini tartibga solish uchun yozma hujjatlarga ehtiyoj sezganlar va bu hujjatlar orqali qonun va tartiblarni belgilashgan. Rasmiy yozuvlar, jumladan, qirol farmonlari, qirollik yozishmalar, soliq hujjatlari, cherkov va feodal yer mulklari haqidagi yozuvlar, ko‘proq lotin tilida yuritilgan. Lotin tili rasmiy til sifatida miloddan avvalgi 3-asrdan 18-asrgacha Yevropada huquqiy, diplomatik va diniy til sifatida ishlatalgan va bugungi kunda lotin tili kundalik muloqotda ishlatilmaydi.

Shuningdek, o‘rta asrlarda cherkov rasmiy yozuvlarni yuritishda lotin tili muhim rol o‘ynagan, chunki aksariyat bilimdon kishilar rohiblar bo‘lib, ular hujjatlarni yozish va saqlash bilan shug‘ullangan. IX–X asrlarga kelib, Germaniya hududida savdo rivojlana boshlagan va

shu sababdan shartnomalar, bojxona hujjatlari paydo bo‘lgan. Eng qadimgi hujjatlardan biri “Karlsruhe Codex” (IX asr) bo‘lib, u Karolinglar sulolasining rasmiy hujjatlaridan biridir.

Nemis tili asosan o‘rta asrlarda og‘zaki tildan yozma tilga o‘tgan. Bu davrgacha mavjud va saqlanib qolgan german qabilalarining yozma yozuvlari runik yozuvda yozilgan. Yozuvlar va hujjatlar, yuridik kitoblar, tarixshunoslik, umuman fan va she’riyat tili lotin tilida yuritilgan.

Nemis tilida yozilgan birinchi hujjat 1063-1077 yillar orasida yaratilgan Augsburg shahridagi xayriya hujjati hisoblanadi. Nemis tili hujjat tili sifatida Germaniyaning janubi-g‘arbiy qismida, 12-asrning oxirida qo’llanila boshlagan bo’lsa ham, Yuqori Reyn va Dunay hududlarida bir necha o’n yillar davomida lotin tili keng qo’llanilgan.

Shuningdek, qirolliklar o’rtasidagi yozishmalar ham lotin tilida yuritilgan. Yozishmalar turiga qarab, leksik vositalar tanlangan. Salomlashish yoki xayrashish ifodalari rasmiy maktublarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bu birikmalar har xil turdagи matnlar (rasmiy hujjatlar, kantsler maktublari, kabinet xatlari, qo’lyozmalar) uchun qo’llanilgan.

O’rta asrlarda “*datum die nativitatis S. Ioannis A. D. [= anno Domini] MCCCL*” (*lotincha*: „gegeben am Tag der Geburt Johannes des Täufers im Jahr des Herrn 1350“ (“Milodiy 1350 yilda, Iogann cho’qintiruvchi (Yahyo payg’ambar) tug’ilgan kunida berilgan”) kabi birikmalar bilan maktubni yakunlash keng tarqalgan. Xayrashish iboralari qirollik yoki davlat idoralarida yuritiladigan rasmiy hujjatlarning ham asosiy qismi hisoblanib, u rasmiy, huquqiy hujjatlarda, davlat rahbarlari tomonidan yoziladigan maktublarda ham qo’llanilgan. Shuningdek, rasmiy maktublarda qirollik va imperatorlik unvonlarini birgalikda ishlatilganini kuzatish mumkin. Masalan, Genrixning toj kiyish marosimida unga quyidagicha murojaat qilingan:

*“Gloriosissimo imperatori Heinrico tertio, regi ad pacem et bellum idoneo.”*  
("Eng ulug‘vor imperator Genrix III, tinchlik va urush uchun munosib qirolga.")

Bu yerda imperatorlik va qirollik unvonlari birgalikda ishlatilgan, lekin 1047-yildan beri ma’lum bo‘lgan muhr qatoridagi kombinatsiyalangan unvonlarning an’anaviy ishlatilish tartibidan farqli ravishda teskari tartibda joylashgan, ya’ni imzo qatorida (hujjatlarda) odatda qirollik unvoni oldin, imperatorlik unvoni keyin kelgan.

Murojaat shaklini tanlash murojaat qilgan shaxs sinf ierarxiyasida yozuvchidan yuqori yoki pastda bo’lganligi va qay darajada ekanligiga bog’liq bo‘lgan.

Hukmron hukmdorlar, ya’ni imperator knyazlari, imperator graflari, qirollar va imperatorlar tantanali maktublarning boshida o’zlarining suveren unvonlarini qo’yanlar va sarlavhadan keyin salom berilgan: *Von Gottes Gnaden, Bischof zu Speyer, Propst zu Weissenburg und Odenheim, dem Heiligen Römischen Reichs Fürst, unsern gnädigsten Gruß zuvor (Xudoning inoyati bilan, Shpeyer yepiskopi, Vayssenburg va Odenxaym pastori, Muqaddas Rim imperiyasi shahzodasiga eng samimiyl salomlarimizni yo’llaymiz.)*

Tabriklash uslubi qabul qiluvchining darajasiga bog’liq bo’lgan. Agar oluvchi ham knyazlik darajasida bo’lsa, salomlashish quyidagicha bo’lgan: *Unsre freundliche Dienste, und was Wir sonst mehr Liebes und Gutes vermögen, zuvor.* ( “Bizning do’stona xizmatlarimiz va yana qo’limizdan keladigan barcha mehr-muruvvat hamda yaxshiliklar avvalo Sizga atalgan.”

Imperatorlar va qirollar kantslerlik maktublarida hukmdor unvonlarini teng va quyi mansabdor shaxslar uchun ishlatgan, faqat imperator va qirollar unvon oldida „*biz*“ olmoshini ishlatishga ruxsat berilgan.

Har bir xat salom bilan boshlanib, unda maktub yo’llanayotgan shaxsga, agar kerak bo’lsa, eng yuqori unvon bilan, kamida bitta *sharaf so’zi* bilan murojaat qilingan. Qabul qiluvchining martabasiga qarab, maktub ostiga kamida uch barmoq kengligida bo’sh joy qoldirilgan. Imperatorga yozilgan maktublarda esa ikki qo’l kengligida joy qoldirish an’anasi mavjud bo’lgan va qabul qiluvchiga bo’lgan hurmatni ifodalagan.

Shuningdek, qirollar yozishmalarida quyidagi sharaf so’zlari tez-tez yo’llanilgan:

<i>kimga</i>	<i>Nemischa</i>	<i>O’zbekcha</i>
<i>Ota-onaga</i>	<i>lieber, geehrter, hochgeehrter, ehrenfester, verehrungswürdige/r</i>	<i>aziz, hurmatli, juda hurmatli, e’zozlarga loyiq, e’zozli</i>
<i>Yuqori martabali amaldorlar uchun</i>	<i>gestrenger, vester, edler, wohledler, hochedler, wohledelgeborener, ehrwürdiger, wohlverordneter, hochverordneter, gnädigster, hochwürdiger</i>	<i>hurmatli, oljanob, eng oljanob, yaxshi tug'ilgan, hurmatli, yuqori martabali</i>
<i>Doktorlik darajasiga ega bo’lmagan akademiklar uchun</i>	<i>hochzuehrender, hochzuverehrender, wohlgelarter, hochgelarter</i>	<i>qobiliyatli, o’ta hurmatli, yaxshi tug'ilgan</i>
<i>Imperator uchun</i>	<i>hochedelgeborener, wohlgeborener, hoch und wohlgeborener, hochwohlgeborener, h ochgeborener, durchlauchtig hochgeborener, durchlauchtiger, durchlauchtigster, allerdurchlauchtigster großmächtigster und unüberwindlichster</i>	<i>o’ta oljanob, yaxshi tug'ilgan, yuksak va yaxshi tug'ilgan, juda yaxshi tug'ilgan, yuksak tug'ilgan, eng sokin, yuksak tug'ilgan, eng sokin, eng quadratli va yengilmas</i>
<i>Yuqori martabali ruhoniylar uchun</i>	<i>gnädigster, hochwürdiger, hochwürdigster</i>	<i>Marhamatli, oliv hurmatli, eng oliv hurmatli</i>

Bu sharaf so’zlari *insonders, insbesondere, höchst, viel, hoch, sehr* kabi qo’shimchalar bilan ham yo’llanilgan va ular ma’noni kuchaytirishga yordam bergan edi. Misol tariqasida Prussiya qirolining imperatorga yo’llagan maktubidan parcha keltiramiz: „*Eurer Kaiserlichen Majestät sind unsre besonders freundwilligen Dienste, und was wir sonst viel mehr Liebes und Gutes vermögen, jederzeit zuvor.*

*Besonders freundlich vielgeliebter Herr Vetter und Bruder!“*

*„Siz imperator oliv hazratlariga har doim biz samimiyl xizmatdamiz va yana Sizga bo‘lgan bundanda ortiq mehr-muruvvatimiz har doim cheksizdir.*

*Samimiyat bilan Birodarlingiz!“*

Bu kabi iboralar tarixda qirollik yozishmalarida keng qo’llanilgan va hozir kunda arxaizmga aylangan, ya’ni ortiq qo’llanilmaydi va o’z o’rnini zamonaviy murojaat shakllariga bo’shatib bergen.

### **ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Römmele, Andrea. Sprache und Kommunikation in der Politik, 2022.
2. Kämper, Heidrun/ Plewnia, Albrecht (Hg.): Sprache in Politik und Gesellschaft: Perspektiven und Zugänge. Berlin, Boston: de Gruyter, 35-40.
3. [https://de.wikipedia.org/wiki/Deutsche\\_Sprache](https://de.wikipedia.org/wiki/Deutsche_Sprache)
4. Ulrich Ammon: *Die Stellung der deutschen Sprache in der Welt*. De Gruyter, Berlin / New York 2015,
5. Jochen A. Bär: *Die Zukunft der deutschen Sprache*. In: Ekkehard Felder (Hrsg.): *Sprache (Heidelberger Jahrbücher*, Band 53). Springer, Berlin/Heidelberg 2009, . 59–106.
6. Werner Besch, Anne Betten, Oskar Reichmann, Stefan Sonderegger (Hrsg.): *Sprachgeschichte. Ein Handbuch zur Geschichte der deutschen Sprache und ihrer Erforschung*. De Gruyter, Berlin / New York 1984 ff.; 2. Auflage ebenda 1998–2004 (= *Handbücher zur Sprach- und Kommunikationswissenschaft*. Band 2).
7. Karl-Heinz Göttert: *Deutsch. Biografie einer Sprache*. Ullstein, Berlin 2010,
8. Hermann Hirt: *Geschichte der deutschen Sprache*. 2. Auflage. München 1929.